

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11120025>

ASHTARXONIYLAR SULOLASINING SHAJARASIGA DOIR AYRIM FIKR MULOHAZALAR

Beknazarov Javohir Azimjon o'g'li

Samarqand Davlat Universiteti,

Tarix Fakulteti 1-kurs magistranti.

E-mail: Javohir_beknazarov@mail.ru

Annotatsiya: O'zbek davlatchiligi tarixida o'ziga xos o'rniga ega bo'lgan yirik bir sulolalardan biri Ashtarxoniylarning sayyid nisbasini olishi va hukmdorlar davridagi siyosiy jarayonlar va ayrim qiziqarli na'lumotlar haqida so'z yuritimiz. Maqolada shajaraga nisbatan katta e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: Ashtarxoniylarning chingiziylarga va sayyidlarga bog'lanishi, Shahrbonu, Shoh Abbas va Vali Muhammad Aloqalari, Imomqulixon va Nadr Muhammad munosabatlari, Qojarlar bilan shajara birlashuvi, Baqia Qabristoni.

EXCLUSIVE THOUGHTS REGARDING TO GENEALOGY OF THE ASHTARKHANIDS DYNASTY

Beknazarov Javohir Azimjon ogli

Samarkand State University, History of Faculty first year master.

E-mail: Javohir_beknazarov@mail.ru

Abstract: We talk about the acquisition of the Sayyid title of the Ashtarkhanids one of the major dynasties that have a particular position in the history of Uzbek statehood, and political situations during the period of the rulers. In the article, great attention is paid to the genealogy.

Key Words: Connection of Ashtarkhanids to Chingizids and Sayyids, Shahrbonu, Shah Abbas and Vali Mohammad connections, The treatment of Imamkuli and Nadr Mohammad, Family tree merger with Kajars, Bakia cemetery.

Jahonda yuz berayotgan siyosiy jarayonlar o'zaro urushlar Tarix fanining o'rganilish ahamiyatini yanada oshiradi. Ayniqsa, XVII-XVIII asrlarda Buxoro xonligining tarixini o'rganilishi va Osyoning buyuk davlatlari bilan o'zaro aloqalarining yoritilishi davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning rivojlanishidagi asosiy

omillardan biri hisobladi. Ashtarxoniylar Buxoro xonligida 1601-yildan 1785-yilgacha 184 yil hukmronlik qilgan yirik sulolalardan biridir. Ana endi Ashtarxon nomining kelib chiqishini Vamberining bergan ma'lumotiga ko'ra sharhlasak. Ashtarxoniylar Astaraxondan kelgani uchun shunday nomlanganalar. Astraxan so'zining kelib chiqishi forscha ajdar va turkcha xon so'zlaridan yasalgan aniqrog'i, Hoji Tarxon podshohga oiddir. Markaziy Osiyoda bu so'z arabcha shin va te harflari bilan yoziladi va ajdarxon so'zini o'rniga ashtarxon deb aytilgan va yozilgan. Ashtarxoniylar Nisbasi ilk marta "Tarixi Qipchoqxoniy" asarida uchraydi. 1720-yillargacha bu nisba qo'llanilmagan. Xullas Rossiya tomonidan Astaraxan bosib olinganidan so'ng Yormuhammadxon o'g'li Jonibek Sulton bilan Samarqandga Iskandarxon huzuriga kelishdi.¹ Shayboniylar va Ashtarxoniylar shajarasi chingizxonga bog'lanadi, bu sulola uchun dastlabgi poydevor Jonibek Sultondir shu sababli ayrim yangi davr olimlari Joniylar sulolasi deb ham keltiradi va uning shajarasi quydagi ikki tarmoq orqali Chingizxonga bog'lanadi.

Birinchi tarmog'i; Yormuhammadxon ibn Mang'ishloq [Qabri;Kattaqo'rgon tumani Shammi qishlog'ida] ibn Chavoq ibn Muhammadxon ibn Temur sulton ibn Temur Qutlug' ibn Ali Temur ibn Qutlug' Temur ibn Tumag'an ibn Aban ibn O'ztemur ibn To'qay Temur ibn Jo'jixon ibn Chingizxon.²

Ikkinchi tarmog'i: Yormuhammadxon ibn Xoja Muhammad sulton ibn Abul Xayrxon ibn Davlatshayx o'g'lon ibn Ibrohim xon ibn Po'ladxon ibn Suranijxon ibn Mahmudxojaxon ibn Qaanboy sulton ibn Alpan sulton ibn Munka Temurxon ibn Badaqul sulton ibn Jo'ji Buqa ibn Bahodirxon ibn Shaybanxon ibn Jo'jixon ibn Chingizxon.³

Bir shajaradan bo'lganliklari uchun Iskandarxonning qizi Zuhrabegim Jonibek Sultonga nikohga berildi. Ulardan Din Muhammad, Boqi Muhammad va Vali Muhammad tug'ildi. [Dilorom Sangirova yana bir o'g'il borligini aytadi. Alam Muhammaddir. Ajab xonim va Amma xonim ismli qiz farzandlari bo'lgan.]^{4 5} [Matlab ut Tolibin asarida bu ikki sulola nikohidan tug'ilgan qiz haqida aytiladi. Ismi noma'lumdir. Ajab yoki Amma xonimdan biridir. Jo'yboriy xo'ja Muhammadtayyib Nadr Muhammadxonning onasi vafot etgani sababli Balxga Xon oldiga ta'ziya bildirish uchun jo'natiladi. Nadr Muhammad o'z ammasini Muhammadtayyibxo'jaga nikohlab beradi, bu nikohadan tug'ilgan qizni keyinchalik vaqtlar o'tib, Subhonqulixon o'z nikohiga olgan.]⁶

¹Arminius Vambery. History of Bokhara. Library of Toronto university . 1971. 01 november. DK.876.V2. 305-p.

²Abdulqodir ibn Muhammad Amin. Majma' al-ansob va-l-ashjar. Almati, Dayk-press-2005. 282-b.

³Abdusattor Jumanazar. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. Toshkent, Akademiknashr 2017. 146-b

⁴Akbar Zamonov, Buxoro xonligi tarixi. Toshkent-2021.183-b.

⁵Sharq Mash'ali (2018)- 2-son Dilorom Sangirova''Bir Sulola Shajarasi Haqida'' 34-b.

⁶Muhammad Tolib ibn Tojiddin Xasanxo'ja Al-Xusayniy As-Siddiqiy. Matlab ut tolibin. G'. Karimiy va E.Mirkomilov tarjimasini. Toshkent, Movaronnahr-2016. 239-b.

Abdulmo‘minning vafotidan so‘ng munosib Shayboniy hukmdor topilmagani uchun Jonibek sultonga taxtga chiqish taklifi berildi.(An‘anaga ko‘ra taxtga Chingizxon avlodlaridan bo‘lgan xonlar chiqishi kerak bo‘lgan Jonibek sulton ayni shu shajaradan edi.) Ammo U shunday deydi; To‘g‘ri men Chingizxon avlodidan bo‘lishim mumkin ammo taxtga shayboniylarga qarindosh bo‘lgan kishi chiqishi kerak deydi va Din Muhammadga ishora qiladi. U Chig‘atoy va Jo‘ji nasabiga bog‘lanar edi. Bu paytda Din Muhammad Xurosonda edi. Shoh Abbos, Shayboniy hukmdor Abdulmo‘min vafotidan so‘ng Xurosonga hujum qiladi bu jangda Din Muhammad vafot etadi. Xoqi [Haq] Yasavul Din Muhammadxoning rafiqasi Zuhraonuni otga mingazadi va Nadr Muhammadxon va Imomqulini egarning ikki tomoniga xurjunga solib Samarqandga jo‘natadi. [Din Muhammadning ikki qizi ham bo‘lgan ular; Zubayda Bonu va Shamsiya Bonu ismli qizlar edi. Ularning onalari haqida ma‘lumotimiz yo‘qdir,] Nadir Muhammadxon solingan xurjun tomonga o‘q tegadi va u yaralanib butun umri davomida cho‘loq bo‘lib qoladi. Boqimuhammadxon va Vali Muhammadxon Amudaryodan o‘tib qutilib qoladi. Boqimuhammadxon taxtga chiqqach, qozoq xoni To‘kelxon [Tavakkalxon] Toshkentga hujum qiladi. Boqi Muhammadxon bu hujumni qaytaradi. Endi so‘zni Din Muhammadxonning o‘g‘li Imomquli haqida davom ettirsak. 1605-yilda 51-yoshida Boqi Muhammad vafot etgach, Vali Muhammad hukmronligi boshlandi. Imomqulixon va Nadr Muhammadxon Balxda tez-tez isyon ko‘tarar edi. Oradan 5 yil o‘tib, Vali Muhammad taxtdan ag‘darildi va Imomqulixon taxtga chiqdi. Vali Muhammad Imomqulixonidan yengilgach, Eronga Shoh Abbos huzuriga qochadi. Uni Shoh Abbos Davlatobodga kelib, kutib olishni mo‘ljallaydi. 20 ming san‘at ustalari tomosha ko‘rsatadi. Vali Muhammad o‘tgan ko‘chalardagi uylar, do‘konlar va bozorlar gilamlar bilan bezatilgan edi. Saroyga kirishda shoirlar she‘r aytib kutib oldilar. Bu mehmondo‘stlik Vali Muhammadni taxtni qayta egallash uchun qilinga ulug‘vorlik edi. Shoh Abbos Vali Muhammadga yordam berganini sababi, Vali Muhammad taxtga chiqsa, ular birgalikda Eronning shimoliy chegaralarini, turkmanlardan himoya qilishmoqchi edi. Abbos 80 ming askarni Vali Muhammadga qo‘shib Amudaryo tomonga jo‘natadi. Imomquli Xoja Muhammad Amin bilan maslahatlashib, janga tayyorgalikni boshlaydi. Mag‘iyon ko‘lida jang bo‘ladi va Vali Muhammad asr tushib, jangda qatl etiladi, Vamberi tarix yozishda ko‘pincha Ravzat us safo asridan foydalanadi va bu jang bu haqida Ravzat us safoda hech qanday ma‘lumot berilmagan deb keltiradi. Ammo Tarixi Muqimxoniy asarida bu jang 1611-yil Rajab oyining yettinchi sanasida chorshanba kuni bo‘ldi deb aniq ma‘lumot ko‘rsatiladi. 1611-yil 27-avgustida Bog‘ishamol mavzeidagi jang edi, Jangda Vali Muhammad asir tushadi, Vali Muhammadning qatl etilganidan so‘ng uning ikki o‘g‘li Rustamsulton va Muhammad Sulton Eronga qochadi Shoh Abbos ularga yer mulk beradi. Qunduz va Balx viloyatlari ular

tomonidan idora etiladi. XVIII- asr Balx hokimi Vali Muhammadning evarasi Abdullaxon xususida manbalar bor, u Rahim yoki Rustam sultoning o'g'li bo'lishi mumkin deydi-A.Zamonov. Imomquli Toshkentni qozoqlardan himoyalash maqsadida o'g'lini hokim qiladi, o'g'li Iskandarxon hukumat ishlarini Buxorocha uslubda davom ettiradi. Shaharni qozoqlar hujumidan so'ng tiklash uchun xiroj va zakot solig'ini ko'paytirmoqchi bo'ladi ammo bunga qarshi qo'zg'olon ko'tarilib u o'diriladi, Imomqulixonning o'zi Darvoz, Hisorga yurish qiladi. Nadr Muhammadni Balxdan chaqirtirib, Andijon, Farg'ona, Marg'ilonga hujum qilgani haqida Imomqulinoma asarida aytiladi.¹ Yana bir o'g'li Pirmuhammadni Andijonni egallab olgan Abulay sulton o'dirgan. Bahrom mirzo o'g'li haqida va Abdulazizxon, Subhonqulixonga turmushga chiqqan qizlari haqida ma'lumotlar yo'q. Xo'jandni Sanjar sulton ismli nabirasi boshqargan Imomqulixon haj safariga ketayotgan davrida.²

Nadr Muhammadxonning Balx hokimligi davrida Eron bilan munosabatlar yaxshilanadi, 1621- yilda Poyanda Mirzo boshchigida elchilarni jo'natadi, 50 ta ot sovg'aga beriladi, buning sababi Eron avliyosi Imom Rizoga Nadr Muhammadxon qarindosh edi. Buni bir oz orqaga qaytib Abdulm'min davri voqealariga bog'laymiz.[Alikseev Ashtarxoniy Imomqulixonni-Xoni kalon,[Katta xon] Nadr Muhammadxonni-Xoni xurd [Kichik xon] deb iqtibos keltiradi,].³ Shayboniy Abdulmo'min Eronga qilgan hujumidan so'ng bir necha shaharlarni egallaganda Din Muhammad u bilan edi. Din Muhammad ko'cha bo'ylab aylangani chiqqanida bir shayx uning oilasini saqlab qolishini va mehmondo'stligini qabul qilishini so'raydi hatto qizini unga nikohlab beradi. Bu qiz sayyid avlodidan bo'lib Hazrati Ali shajarasiga borib taqaladi,[Tarixi Muqimxoniy asarida qizni ismini Shahrboni begim deydilar.]⁴ Vamberi qizni ismini Zuhraonu begim deb yozadi. [Abdusattor Jumanazar ham bu haqida takidlaydi:- Buxoro ta'lim tizmi tarixi asarida; Abdullaxon o'g'li Abdumo'min qo'shini Tus atrofini bosib oladi va qishloqlarni talay boshlaydi. Xuddi shu paytda muqaddas ravza mutavallisi Mirzo Badiuzzamon Din Muhammad Sultonga duch keladi va undan talonchilikning oldini olishni iltimos qiladi. Din Muhammad Sulton uning iltimosini bajo keltirgach, mutavalli qizini unga nikohlab beradi.]⁵ bu nikohdan Nadr Muhammadxon tug'iladi. Imomqulixonning onasi esa boshqa ayol Zuhraonuning o'gay o'g'lidir, qizlarining onalari haqida ham ma'lumotlar halicha topilgani yo'qdir, Yuqorida aytganimizdek Marg'iyon jangidan so'ng Shahrbonu Imomqulixon va Nadir Muhammadni Buxoroga olib keladi ammo o'zi Mashhadga

¹ Moziydan Sado, 1(37)2008. Dilorom sangirova Suhayl:<<Imomqulinoma>> 22-b.

² Sharq Mash'ali (2018)- 2-son Dilorom Sangirova''Bir sulola shajarasi haqida'' 36-b

³ А.К.Алексев. Политическая история Тукай- Темуридов. Петербургского университета -2006. 120-с.

⁴ Muhammad Yusuf Munshiy, Tarixi muqimxoniy, Semyonov tarjimasini Toshkent, O'ZFA nashriyoti-1956. 99-b

⁵ Abdusattor Jumanazar. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. Toshkent, Akademiknashr 2017. 146-b.

ketishga majbur bo‘ladi. U Shoh Abbosning buyrug‘i bilan Qojar Xoni Mehrobxonga turmushga chiqadi, bu nikohdan Murtazo Qulixon tug‘iladi. Murtazo keyinchalik Mashhad hokimi bo‘ladi, Murtazo Marvni ozod qilish uchun jangda asir tushib, Buxoroga Imomqulixon huzuriga keltiriladi. Imqulixon uni o‘gay ukasi ekanligini bilgach, hurmat ehtirom ko‘rsatadi, hatto ozodligini qaytarib beradi, Zuhrabonu ikki turkiy sulola Ashtaxoniylar va Qojarlar o‘rtasida turk qarindoshchilik rishtalari bog‘ladi

Imomqulixon va Nadr Muhammadxon o‘rtasidagi tutinganlik rishtalari bo‘lsada, hech qachon munosabatlar buzilmagan, bir namuna ko‘rsatamiz: Boburiy Shohjahon hujumini qaytarish uchun Balxga kelgan Imomqulixonni Nadr Muhammadxon o‘n ikki o‘g‘li bilan piyoda yurib uni kutib olishga chiqadi.” Imomqulixon aytadi: Sen sayyidsan senga piyoda yurish sharafsizdir deganida, u 8 qul bilan birgalikda o‘zini ham taqdim etadi. [turkiy odatga ko‘ra 8 qulga qo‘shib o‘zini qul sifatida taqdim etish bu hukmdorga sodiqlik belgisidir]. Imomqulixon davri boshqaruvi Sulton Husayn Boyqaro davriga o‘xshashligini va davlatda gadoy u bechoralar bo‘lmaganligini muarrixlar ta’kidlaydilar. Imomqulixon ko‘zidan yara chiqib butunlay ko‘r bo‘lib qoladi va haj safariga ketadi, Madinada yashab o‘sha yerda vafot etadi. Qabri Baqia qabristonidadadir, 62 yil umrgo‘zaronlik qildi.¹ Akbar Zamonov bu sanani yanada aniqlashtirib, 1644- yilda Arofat tog‘ida vafot etganini o‘z asarida qayd etadi.

Nadr Nuhammadxon hukmronligida Eron dan yordam olganligi yuqorida aytganimizdek Zuhrabonu va Eron safaviylar sulolasi sayyidlar orqali qarindoshlik rishtalari bog‘langan, shu sababli ular ko‘mak berganlar, Nadr Muhammad Hajga ketayotib Eronning Simnon viloyatida vafot etadi, Eron hukmdorlari uni Madinaga akasini qabri yonida dafn etadilar.² Uning hukmronligi 3 yil bo‘lgani uchun so‘zni uning o‘g‘li Abdulazizxon haqida yuritsak.

Abdulazizxon hijriy 1022 yili rabbi ul-avvalning boshida (1613 yil 21 apreldan bir necha kun o‘tib) bahor faslida ashtarxoniy sultonlardan Nadr Muhammadxon xonadonida tavallud topadi. Ota tomondan turkiy va sayyid va onasi orqali ham sayyiddir. Nasabi ota tomondan ikki tarmoq bo‘ylab Chingizxonga yetadi.

Birinchisi quyidagicha: Abdulazizxon ibn Nadr Muhammadxon ibn Din Muhammadxon ibn Jonibek sulton ibn Yormuhammadxon ibn Mang‘ishloq ibn Chavoq ibn Muhammadxon ibn Temur sulton ibn Temur Qutlug‘ ibn Ali Temur ibn Qutlug‘ Temur ibn Tumag‘an ibn Abay ibn O‘ztemur ibn To‘qay Temur ibn Jo‘jixon ibn Chingizxon

¹Arminius Vambery. History of Bokhara. Library of Toronto university . 1971. 01 november. DK.876.V2. 305-319-pages.

²Akbar Zamonov. O‘rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma’lum sahifalari. Toshkent. Bayoz-2020. 134-b.

Ikkinchi tarmog‘i: Abdulazizxon ibn Nadr Muhammadxon ibn Din Muhammadxon ibn Zuhra bibi binti Iskandarxon ibn Jonibek Muhammadxon ibn Yormuhammadxon ibn Xoja Muhammad sulton ibn Abul Xayrxon ibn Davlatshayx o‘g‘lon ibn Ibrohim xon ibn Po‘ladxon ibn Suraniyxon ibn Mahmudxojaxon ibn Qaanboy sulton ibn Alpan sulton ibn Munka Temurxon ibn Badaqul sulton ibn Jo‘ji Buqa ibn Bahodirxon ibn Shaybanxon ibn Jo‘jixon ibn Chingizxon.

Abdulazizxonning ota tomoni quyidagi tartibda sayyidlarga borib taqaladi: Abdulazizxon ibn Nadr Muhammadxon ibn Shamsiyabonu binti Mirzo Badiuzzamon ibn Mirzo Muhammad Amin Mashhadiy ibn Mirzo Muhammad Safar ibn Mirzo Muhammad Muhsin ibn Mirzo Ali Rizo ibn Mirzo Muhammad Taqi ibn Mirzo Sayyid Abu Solih ibn Mir Sayyid Muhammad Mu‘in ibn Mirzo Hidoyatulloh ibn Mir Sayyid Nuriddin Muhammad ibn Mir Jaloliddin Muhammad ibn Mir Sayyid Abu Muhammad ibn Imom Muhammad Askariy ibn Imom Ali Naqi ibn Imom Muhammad Taqi ibn Imom Muso Ali Rizo ibn Imom Muhammad Kozim ibn Imom Muhammad Jafar Sodiq ibn Imom Muhammad Boqir ibn Imom Zaynulobidin ibn Imom Muhammad Husayn ibn amir al-mo‘minin Ali ibn Abu Tolib.

Abdulazizxon 1645-yilda Buxoroda davlat tepasiga keladi. Balxdagi hukmronligini ham qo‘shib hisoblaganda 42 yil xonlik qiladi. Fikrimizcha Abdulazizxonning farzandlari bo‘lmagan, chunki tarixiy manbalarda uning farzandlari haqida hech qanday ma‘lumotlar uchramaydi. U 1683 umra hajini ado etayotib Madina shahrida 70 yoshida vafot etadi va Baqia qabristoniga, amaki bobosi (ya‘ni otasining akasi) Imomqulixon yonidadir qabri.¹

Subhonqulixon va Abdulazizxon ashtarxoniy Nadr Muhammadxonning ikki xotinidan tug‘ilgan farzandlari edi. Ularning onalari haqida malumotimiz yo‘qdir. Subhonqulixon 1628 yillar atrofida tug‘ilgan. Uning Iskandarxon, Mansurxon, Ibodullaxon, Muhammad Siddiqxon (hammasi Balxda dafn etilgan), Ubaydullaxon va Abulfayzxon ismli o‘g‘illari bo‘lgan.² Subhonqulixon va uning avlodlarining sayyidlar avlodiga tegishli ekanligini biz yana bir karra Ubaydullanoma asari orqali tasdiqlamoqchimiz, asarda Ubaydullaxonning otasi Subhonqulixon muhammadxon deb asarda tavsif beriladi. Uning o‘g‘illariga sayyid nisbasi Asarning 175-sahifasida Sayyid ubaydillaxon deb keltirilsa Sayyid Abulfayzxon esa, 150-173-sahifalarda keltiriladi³ va shuningdek Muhammad Zamon Buxoriyning Muhit ut tavorix asarida ham Nadr Muhammad, Abdulazizxon va Subhonqulixon sayyid nisbasi bilan ismlari bilan keltiriladi.

¹Abdusattor Jumanazar. Buxoro ta‘lim tizimi tarixi. Toshkent, Akademiknashr 2017. 146-b.

²Abdusattor Jumanazar. Buxoro ta‘lim tizimi tarixi. Toshkent, Akademiknashr 2017. 246-b.

³ Mir Muhammad Amin Buxoriy, Ubaydullanoma-177-b.

Ubaydullaxon davrida Hokimiyatning zaiflashuvi kuzatila boshlaydi. Balx va Qo‘qon xonliklari mamlakat sarhadlaridan ajralib chiqib ketadi. Muhammad Amin Buxoriyning qayd etishicha, Ubaydullaxonning Bibi poshsho ismli xizmatkoridan Abdulla sulton ismli farzand tug‘ilgan.

Abulfayzxon davrida mamlakatda isyonlar bo‘lib jung‘orlarning va Erondan Nodirshohning hujumlari kuzatiladi.¹ D. Sangirovaning ma‘lumotlariga ko‘ra Shamsmohbonu, Shahzodabonu, Oyxonumbibi ismli qizlari va Abdulmo‘min va Ubaydullaxon ismli o‘g‘illarilari bo‘lgan. Eng so‘ngi ashtarxoniy hukmdor Abulg‘ozixon bo‘ldi. U 1802-yilda vafot etgan.

Mang‘it hukmdorlarining ayrimlari ham sayyid nisbasi bilan tug‘liganlar. Muhammad Rahimbiy 1756-yilda Abulfayzxonning qizi Yulduzbegim [shamsiyabonu]ni o‘z nikohiga oladi.² Ammo tez orada Rahimbiy vafot etib, bu ayol beva qoladi. Shoh Murod hokimiyatga kelgach Shamsiyabonuni nikohiga oladi. Bu Nikohdan tug‘ilgan farzand Amir Haydar sayyid nisbasini va chingiziy hukmdor nisbasini olib mang‘it hukmdorlariga tuhfa etadi.³ Chunki Shamsiyabonu sayyid nisbali chingiz avlodidan edi. Qarshidan to‘rt farsax uzoqlikda Ashtarxoniylar davrida uncha katta bo‘lmagan Kasbi shahrida Mir Haydariy sayyidlari yashagan, o‘zbek hukmdorlari kasbi qishlog‘idagi sayyidlarning qizlari bilan turmush qurishga harakat qilganlar. Nasablarini ulug‘lash uchun.⁴

Qisqacha xulosa shuki: Chingizxon va Payg‘ambar avlodidan bo‘lgan hukmdorlar qonuniylik va vorisiylikka da‘va qila olganlar. Shu sababli Movarounnahrda Ashtarxoniy va Mang‘it hukmdorlari o‘zlarini sayyid avlodiga taqashga harakat qilganlar. Taxtga faqat chingiz avlodidan bo‘lgan xonlar o‘tirganlar. Sayyidlik nasabi bilan esa diniy jihatdan qonuniy hukmdor ekanligini tasdiqlashga uringanlar. Dilorom sangirova jami 11 ta rasmiy hukmdor bo‘lgan xonlarni sanab o‘tgan. Ulardan Imomqulixon, Abdulazizxon, Subxonqulixon davrida mamlakat obodonchiligi va ravnaqi uchun ulkan hissa qo‘shilgan. Mamlakat sarhadlaridagi dushmanlarni siqib chiqara olgan. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki; Boshqa xonlarning sa‘y harkatlaridan taqsiinga sazovorli amallari ham bor.

¹ Mirzo Salimbek. Tavorixi Mutaqaddimin Va Mutaaxxirin. Buxoro-2003. 280-286-betlar.

² Muhammad Vafo Karmanagi, Tuhfat ul xoniy ,Jamshid jurazoda va Nurilla G‘iyosov tarjimasini. Xujand,Nuri ma‘rifat-2017.9-b.

³ Sayyid Mansur Olimiy, Buxoro turkiston beshigi, Fors tilidan Halim To‘rayev tarjimasini Buxoro- 2004. 41-b.

⁴ Mahmud ibn Vali. Bahr ul asror, B.Ahmedov tarjimasini, Toshkent, Fan-1977. 80- va 133-betlar.

BIBLIOGRAFIYA [REFERENCES].

- [1]. Arminius Vambery. History of Bokhara. Library of Toronto university . 1971. 01 november. DK.876.V2.
- [2]. Abdusattor Jumanazar. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. Toshkent, Akademiknashr 2017.
- [3]. Abdulqodir ib Muhammad Amin. Majma' al-ansob va-l-ashjar. Almati, Daykpress-2005.
- [4]. Akbar Zamonov, Buxoro xonligi tarixi. Toshkent-2021.
- [5]. Akbar Zamonov. O'rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma'lum sahifalari. Toshkent. Bayoz-2020.
- [6]. Muhammad Tolib ibn Tojiddin Xasanxo'ja Al-Xusayniy As-Siddiqiy. Matlab ut tolibin. G', Karimiy va E,Mirkomilov tarjimasini. Toshkent, Movaronnahr-2016.
- [7]. А.К.Алексеев. Политическая история Тукай-Темуридов. Петербургского университета-2006.
- [8]. Muhammad Yusuf Munshiy, Tarixi muqimxoniy, Semyonov tarjimasini Toshkent, O'ZFA nashriyoti-1956.
- [9]. Sayyid Mansur Olimiy, Buxoro turkiston beshigi, Fors tilidan Halim To'rayev tarjimasini Buxoro- 2004.
- [10]. Muhammad Vafo Karmanagi, Tuhfat ul xoniy, Jamshid Jurazoda va Nurilla G'iyosov tarjimasini. Xujand, Nuri ma'rifat-2017.
- [11]. Mahmud ibnVali. Bahr ul asror, B.Ahmedov tarjimasini, Toshkent, Fan-1977.
- [12]. Mīrzā Muḥammad Zamān Bukhārī. Muḥīṭ al-tavārīkh, translated and annotated by Mehrdad Fallahzadeh, Forogh Hashabeiky. Brill- 2020.
- [13]. Mirzo Salimbek. Tavorixi Mutaqaddimin Va Mutaaxxirin. Buxoro-2003..
- [14]. Moziydan Sado, 1(37)2008. Dilorom sangirova Suhayl: "Imomqulinoma".
- [15]. Sharq Mash'ali (2018)- 2-son Dilorom Sangirova "Bir Sulola Shajarasi Haqida".